TSUE

YASHIL

YIT
Yashil iqtisodiyot&taraqqiyot
ilmiy-elektron jurnal

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, III-QISM

OPEN ACCESS
ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE
CYBERLENINKA
OpenAIRE
ROAD
НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU
BASE
INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL
Crossref



ISSN: 2992-8982
https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

Google Scholar
Academic Resource Index ResearchBib

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
III-qism

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Karimov Norboy G‘aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay’ati:
Salimov Oqil Umrzoqovich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G‘afforovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko‘nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o‘g‘li, O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig‘i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o‘rinbosari
Ochilov Farkhod, O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig‘i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li, TDIU katta o‘qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra’no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po‘latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
G‘afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o‘qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:
Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

MUNDARIJA

SUD BOSHQARUVCHILARI FAOLIYATINING IQTISODIY RAG‘BATLANTIRISH TIZIMI VA ULARNING SUBSIDIAR JAVOBGARLIGI: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI 12
Soliyev Damirjon Nurmatovich
BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASI ASOSIDA MOLIYAVIY TRANZAKSIYALARNI NAZORAT QILISH TIZIMI (SMART-KONTRAKTLAR, MARKAZLASHMAGAN MA’LUMOTLAR BAZASI VA AUDIT IZLARI) 18
Olimova Mukhlisa Vohidjon qizi
SANOAT SEKTORIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH: STRATEGIK AFZALLIKLAR VA TO‘SIQLAR TAHLILI 26
Xatamov Ochildi Qurbonovich
ТРАНСФОРМАЦИЯ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЕЁ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ 32
PhD. Юлдашева С.Ш
TREND MODELLARI YORDAMIDA MEHNAT RESURSLARI SONINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH 38
Haydarova Dinora Atamurot qizi
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЫКУПА И ПРОДАЖИ КВОТ НА ОРОСИТЕЛЬНУЮ ВОДУ 43
Гоженко Борис Владимирович
MOLIYAVIY LEVERIJ SAMARASI VA QARZ MABLAG‘LARINI BOSHQARISHDA UNDAN FOYDALANISH 50
Latipova Shaxnoza Maxmudovna
XIZMATLAR SOHASIDA WEBMONEY TO‘LOV TIZIMINI KOMPYUTERDA O‘RNATISH VA SOZLASHNING IQTISODIYOTDAGI ROLI 55
Fazilat Esirgapovna Jomonqulova
Nizomov Murod
Qurbonboyeva Rayhon Bahronjon qizi
MECHANISMS FOR THE FORMATION ANDDEVELOPMENT OF A HEALTHY LIFESTYLE 58
Shukhrat Mashrabboevich Mamadaliyev
BANK SEKTORIDA OPERATSION SAMARADORLIK VA XAVFLARNI BOSHQARISHNI BAHOLASH 62
R.I.Rashidov
A.N. Elmurodov
A.A. Muhiddinov
TRANSFORMING ECONOMIC GOVERNANCE IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL PUBLIC SECTOR TOOLS 68
Bokhodirov Boriykhon Boburovich
Bahromjon Urmanov
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA VA KREDIT SALOHIYATINI BOSHQARISH 74
Ergashova Nilufar Sobirovna
DEHQON XO‘JALIKLARIDA QO‘SHILGAN QIYMAT ZANJIRINING SHAKLLANISHI VA UNGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR 80
Azizov Shohsuvor Yuldashevich
VERTIKAL INTEGRATSIYALASHGAN BANK TUZILMASINI “YAGONA MFO” TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISH SXEMASI 84
Qo‘shboqov Doniyorbek Maxramqulovich

СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O‘ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA “YASHIL EKOTIZIM” VA RESURS SAMARADORLIGI (RECP)NI JORIY ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI HAMDA EMISSIYALARNI KAMAYTIRISH SAMARADORLIGI 90
Do‘stqobilov Ulug‘bek Ibrohimovich
TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN VA MOHIYATIGA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR 94
Pardayeva Ozoda Mamayunusovna
СНИЖЕНИЕ ТЕХНИЧЕСКИХ И КОММЕРЧЕСКИХ ПОТЕРЬ ЭЛЕКТРОЭНЕРГИИ КАК НАПРАВЛЕНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАСПРЕДЕЛИТЕЛЬНЫХ СЕТЕЙ УЗБЕКИСТАНА 100
Маърупова Дилсора Абдулла кизи
O‘ZBEKISTON QURILISH SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHNING INSTITUTSIONAL SHART-SHAROITLARI 105
Qodirov Sardorbek Isroiljon o‘g‘li
АКАДЕМИЧЕСКИЕ НАВЫКИ И ОСОБЕННОСТИ ИХ ФОРМИРОВАНИЯ 113
Усманова Зумрад Исламовна
Рахматуллаев Алижон
Сайфитдинов Азизжон
G‘AZNACHILIK OPERATSIYALARINING BANKLIKVIDLIGINI TA’MINLASHDAGI O‘RNI (SILICON VALLEY BANK MISOLIDA) 119
Axadov Shahboz Shuxrat o‘g‘li
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТВЁРДЫМИ БЫТОВЫМИ ОТХОДАМИ В Г. ТАШКЕНТЕ: ОТ ПОЛИГОННОГО ЗАХОРОНЕНИЯ К РЕСУРСНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОМУ ИСПОЛЬЗОВАНИЮ 127
Джусупов Кубанычбек
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI AXBOROT TA’MINOTINING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH 133
Umidjon Kostayev
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR TEACHING STUDENTS OBJECTORIENTED PROGRAMMING IN A VIRTUAL COLLABORATIVE ENVIRONMENT USING GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE TOOLS 140
Saidova Dilfuza Ergashovna
AUDIT SIFATI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH 145
Muydinov Erkin Jamaldinovich
THE ROLE OF E-COMMERCE IN ECONOMIC DEVELOPMENT: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN’S DIGITAL TRANSFORMATION 152
Shakhriddinova Sitora Tolibjon kizi
THE IMPACT OF SUSTAINABILITY PRACTICES IN THE AGRICULTURAL INDUSTRY IN UZBEKISTAN 157
Yorkin Ziyodullaev
Munisa Bekmirzaeva
РОЛЬ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В ЗЕЛЕНОМ РОСТЕ В УЗБЕКИСТАНЕ 166
Мохамед Эйд Али Балбаа
Усманова Азиза Алишеровна
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING INNOVATSION YO‘LLARI 173
Shakirxodjaeva Zuxraxon Rustamxanovna
BARQAROR RIVOJLANISH HISOBOTLARINI TUZISH MASALALARI: XALQARO TAJRIBA VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 180
Menglikulov Baxtiyor Yusupovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

THE IMPACT OF SUSTAINABILITY PRACTICES IN THE AGRICULTURAL INDUSTRY IN UZBEKISTAN 184
Yorkin Ziyodullaev
Munisa Bekmirzaeva
TASTE OF PLACE: HOW LOCAL-INGREDIENT SOURCING AFFECTS GUEST SATISFACTION AND MENU PROFITABILITY IN HOTEL RESTAURANTS 193
Bahodirova Durdona
Atametova Sevara
INTERACTIONS IN CREATIVE TOURISM: RESIDENTS' PERSPECTIVES IN UZBEKISTAN 198
Dildora Khodjaeva Mukhamedkhodjaevna
Jasmin Raxmidinova
XO'JALIK YURITUVCHISUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI 204
Bauyetdinov M.J.
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA MINTAQA TABIIY RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA) 212
Safarov Otabek Abduhamidovich
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINING NAZARIY JIHATLARI 218
O'rinov Akmaljon Axmadjonovich
ТЕОРИИ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ В БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ 223
Убайдуллаева Мафтунахон Акмалхон кизи
SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIYOTIGA JALB ETILAYOTGAN INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGI TAHLILI 230
Xatamova Manzura Ochildiyevna
TURISTIK MAHSULOT MARKETINGI: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI 240
Usmanova Zumrad Islamovna
IN VITRO TEXNOLOGIYASI ASOSIDA KARTOSHKA URUG'CHILIGI ZANJIRI SAMARADORLIGINI IQTISODIY BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI 244
Mardonova Zarifa Numonjonovna
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT OPERATSIYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN RESURSLAR YETARLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI 251
Sheraliyev Olimjon O'ktam o'g'li
O'ZBEKISTONDA ESG MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA MEXANIZMLARI 258
Ajibayeva Rauiya Maxsutovna
YASHIL MOLIYALASHTIRISH INSTRUMENTLARI ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MASALALARI 262
Ajibayeva Rauiya Maxsutovna
ANIQ FANLARNI O'QITISHDA METAKOGNITIV YONDASHUVLAR: TEORETIK ASOSLAR, KOGNITIV ARXITEKTURA VA AMALIY TRANSFER MUAMMOLARI 265
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li
XUFYONA IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA UNI O'ZBEKISTONDA KAMAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI 270
Kalandarov R.A.
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARIDA ALOQA OPERATORLARI ROLINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI 276
Nuraliyev Nurbek Rustam o'g'li
DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA BILVOSITA SOLIQQA TORTISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI 281
Mansurova Arofatxon Shavkat qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

INTERNATIONAL TRENDS AND THE LEGAL FRAMEWORK OF E-COMMERCE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN 286
Usmanova Zumrad Islamovna
ISSUES OF ACCOUNTING RECOGNITION AND VALUATION OF LONG-TERM ASSETS UNDER INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS (IFRS) 290
Golib D. Tashmanov
Ismandiyor B. Umirzokov
СПЕЦИФИКА ФОРМИРОВАНИЯ РИСКОВ В СФЕРЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПЛАТФОРМ 297
Алиева Сусанна Сейрановна
ZAMONAVIY AXBOROTLASHGAN TA’LIM MUHITIDA ANIQ FANLARNI O‘QITISHNING KOGNITIV VA METAKOGNITIV DETERMINANTLARI 304
Shogeldieyva Sabrina Omongeldiyevna
BANKLARARO LIKVIDLILIKNI BOSHQARISHDA SUN’IY INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH ISTIQBOLLARI 309
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o‘g‘li
OTMLARDA ILMIY-TEXNIK MAHSULOTLARNI TIJORATLASHTIRISHDA ISHTIROK ETADIGAN SUBYEKTLAR: ROLLAR, FUNKSIYALAR VA O‘ZARO MUNOSABATLAR TAHLILI 313
Safarov Bekzod Istamovich
TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTINI YASHIL MARKETING VOSITALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI 319
Jo‘raboyev Jurabek Muhibillo o‘g‘li
O‘ZBEKISTONDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI 323
Aktamov Olimjon Abdug‘ani o‘g‘li
SAVDO FAOLIYATIDA MIJOZ EHTIYOJLARINI ANIQLASH MEXANIZMLARI 333
Mamatraimov Islom Mamanazarovich
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT OPERATSIYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN RESURSLAR YETARLILIGINI TA’MINLASH MASALALARI 338
Sheraliyev Olimjon O‘ktam o‘g‘li
ОСОБЕННОСТИ ФИНАНСИРОВАНИЯ СИСТЕМ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ В СТРАНАХ ЕВРОПЕЙСКОГО СОЮЗА 345
Омокеев Максымбек Конколойевич
O‘ZBEKISTONDA YASHIL TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI 351
Nurmetova Muyassar Jumanazarovna
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TOG‘ TURIZMINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI 358
Alimov Abduvakil Komil o‘g‘li
TURIZMNI MINTAQAVIY RIVOJLANTIRISHDA DIVERSIFIKATSIYA JARAYONLARINING NAZARIY ASOSLARI VA HUDUDIY XUSUSIYATLARI 365
Abduxamidov Sarvar Adxamovich
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING OBYEKTIV ZARURATI, TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI 371
Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi
MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA TIBBIY TURIZM RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH OMILLARI 376
Yusupova Mehribon O‘ktamovna

MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA TIBBIY TURIZM RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH OMILLARI

Yusupova Mehribon O‘ktamovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda tibbiy turizm raqobatbardoshligini oshiruvchi omillar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida global tibbiy turizm bozori rivojlanish tendensiyalari, O‘zbekistonning ushbu bozordagi o‘rni hamda xorijiy bemorlar oqimining dinamikasi o‘rganildi. Tibbiy turizm indeksining metodologik yondashuvlari asosida raqobatbardoshlikni shakllantiruvchi asosiy omillar - xizmat sifati, xalqaro akkreditatsiya, narx ustunligi, infratuzilma, raqamli marketing, kadrlar salohiyati va institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimlashtirildi. Tahlil natijalari mazkur omillar bemorlar oqimi, eksport daromadlari, investitsiyalar va bandlik ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini tasdiqladi. Tadqiqot yakunida tibbiy turizm salohiyatidan samarali foydalanish hamda hududlar iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: tibbiy turizm, raqobatbardoshlik, mintaqa iqtisodiyoti, tibbiy xizmat sifati, xalqaro akkreditatsiya, infratuzilma, eksport xizmatlari, sog‘liqni saqlash, turizm.

Аннотация

В исследовании были проанализированы факторы повышения конкурентоспособности медицинского туризма в развитии региональной экономики. Были изучены тенденции мирового рынка медицинского туризма, позиции Узбекистана на данном рынке и динамика потока иностранных пациентов. На основе методологии Индекса медицинского туризма были систематизированы ключевые факторы конкурентоспособности: качество медицинских услуг, международная аккредитация, ценовые преимущества, инфраструктура, цифровой маркетинг, кадровый потенциал и институциональная поддержка. Результаты анализа подтвердили, что данные факторы способствовали увеличению потока пациентов, росту экспортных доходов, привлечению инвестиций и расширению занятости. По итогам исследования были разработаны практические рекомендации по эффективному использованию потенциала медицинского туризма и укреплению социально-экономического развития регионов.

Ключевые слова: медицинский туризм, конкурентоспособность, региональная экономика, качество медицинских услуг, международная аккредитация, инфраструктура, экспорт услуг, здравоохранение, туризм.

Abstract

This study analyzed the factors that enhance the competitiveness of medical tourism in regional economic development. The research examined global medical tourism market trends, Uzbekistan’s position in the industry, and the dynamics of international patient flows. Based on the Medical Tourism Index framework, the key determinants of competitiveness were identified and systematized, including service quality, international accreditation, price advantages, infrastructure, digital marketing, human capital, and institutional support. The findings demonstrated that these factors contributed to increased patient inflows, higher export revenues, stronger investment activity, and employment growth. The study confirmed the importance of an integrated approach to strengthening destination competitiveness and supporting sustainable regional development. Practical recommendations were developed to improve the effectiveness of medical tourism management and expand its economic contribution.

Keywords: medical tourism, competitiveness, regional economy, healthcare quality, international accreditation, infrastructure, service exports, healthcare management, tourism.

KIRISH

Tibbiy turizm so‘nggi o‘n yil mobaynida sayyohlik iqtisodiyotining tor yo‘nalishidan ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan eksport tarmog‘iga aylandi. Global tibbiy turizm bozori hajmi 2025-yilda 34,0 milliard AQSh dollari deb baholangan bo‘lib, 2026-2035-yillarda o‘rtacha yillik 14,1 foiz o‘sish sur’ati bilan 2035-yilga borib 126,2 milliard dollarga yetishi prognoz qilinmoqda [1]. Bunday yuqori sur’at davolanish xarajatlarining tejalishi, ilg‘or tibbiy texnologiyalar, malakali kadrlar va davolanishni dam olish bilan birlashtirish imkoniyatining birgalikdagi ta’siri bilan izohlanadi.

Tibbiy turizm kengroq sayyohlik tizimining tarkibiy qismi sifatida sezilarli iqtisodiy salohiyatga ega. Sayyohlik va sayohat sohasi 2025-yilda jahon yalpi ichki mahsulotiga 11,6 trillion dollar hissa qo‘shgan bo‘lib, bu global iqtisodiyotning 9,8 foizini tashkil etgan hamda 366 million kishini, ya’ni har to‘qqiz ish o‘rnidan birini ta’minlagan [2]. Tibbiy turizm bu yirik tizim ichida yuqori qo‘shilgan qiymatga ega segment hisoblanadi, chunki u bir vaqtning o‘zida sog‘liqni saqlash, mehmonxona, transport va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini harakatga keltiradi.

O‘zbekistonda bu yo‘nalish amaliy jihatdan tez sur’atda mustahkamlanmoqda. 2025-yilda mamlakatga davolanish maqsadida 86 199 nafar xorijiy fuqaro tashrif buyurgan bo‘lib, bu raqam O‘zbekistonning mintaqada yetakchi tibbiy turizm yo‘nalishlaridan biriga aylanayotganini ko‘rsatadi [3]. Bemorlarning asosiy qismi qo‘shni mamlakatlardan kelganligi hududiy bozorning real talabga asoslanganini, ya’ni geografik yaqinlik, til umumiyligi va narx ustunligi kabi amaliy omillar haqiqatan ishlayotganini tasdiqlaydi.

Davlat siyosati ushbu salohiyatni institutsional jihatdan qo‘llab-quvvatlamoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-335-son qarori tibbiy va sog‘lomlashtirish muassasalarining yagona reyestrini joriy etish, klinikalarning xalqaro sertifikatlashtirilishini tezlashtirish hamda tibbiy turizm klasterlari faoliyatini rag‘batlantirish vazifalarini belgilab berdi [4]. Bunday hujjat tibbiy turizmni davlatning sayyohlik kun tartibida ustuvor yo‘nalish darajasiga ko‘targani amaliy boshqaruv uchun aniq mo‘ljal yaratadi.

Amaliy nuqtai nazardan, raqobatbardoshlikni oshirish masalasi ikki yo‘nalishda dolzarblik kasb etadi. Birinchidan, mintaqa hokimiyatlari va tadbirkorlik subyektlari uchun qaysi omillarga investitsiya kiritish iqtisodiy samara berishini aniqlash zarurati mavjud. Ikkinchidan, hududiy rivojlanishni muvozanatlashtirish nuqtai nazaridan tibbiy turizm daromadlari, bandlik va investitsiya oqimlarini poytaxtdan tashqaridagi viloyatlarga yo‘naltirish imkoniyati ochiladi. Maqolaning maqsadi tibbiy turizm manzillar raqobatbardoshligini shakllantiruvchi omillarni tizimlashtirish hamda ularning mintaqa iqtisodiyotiga ta’sir mexanizmini ishonchli statistik ma’lumotlar asosida asoslab berishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tibbiy turizm manzillarini baholashning eng keng tarqalgan analitik vositasi Xalqaro sog‘liqni saqlash tadqiqot markazi tomonidan ishlab chiqilgan Tibbiy turizm indeksi (Medical Tourism Index) hisoblanadi. Indeks mamlakatlarni tibbiy sayohat yo‘nalishi sifatidagi jozibadorligi bo‘yicha 34 ta mezon asosida tartiblaydi va ularning iqtisodiy farovonlikni oshirishdagi mavqeyini tahliliy baholashga imkon beradi [5]. Ushbu metodologiya raqobatbardoshlikni yagona ko‘rsatkich emas, balki tarkibiy o‘lchamlar tizimi sifatida tushunishga asos beradi.

Indeks raqobatbardoshlikni uchta asosiy o‘lchamga ajratadi: mamlakat muhiti va turizm manzillar jozibadorligi, tibbiy turizm sohasining sig‘imi hamda muassasalar va xizmatlar sifati [6]. Birinchi o‘lcham xavfsizlik, infratuzilma va makroiqtisodiy barqarorlikni qamrab oladi; ikkinchisi tibbiy muassasalar soni, jihozlanish darajasi va xizmatlar raqobatbardoshligini o‘lchaydi; uchinchisi esa klinikalarning akkreditatsiyasi, davolanish natijalari va bemor ishonchini baholaydi. Tadqiqotchilar bu o‘lchamlarni bemor tajribasining uzluksiz zanjirini belgilovchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita omillar majmuasi sifatida talqin qiladilar [7].

O‘zbekiston misolida sohaning hozirgi mavqeyi va kelajak istiqbollari alohida o‘rganilgan. Tadqiqotlarda mamlakat hududiy bemor oqimlariga ega bo‘lib, global bozordagi ulushini yanada kengaytirish imkoniyatlariga ega ekani qayd etilgan; ayni paytda huquqiy, infratuzilmaviy, kadrlar va raqamli yo‘nalishlardagi izchil islohotlar amalga oshirilsa, soha yiliga 300 million dollargacha eksport daromadi keltirishi mumkinligi asoslangan [8]. Bunday baholash O‘zbekistonning hozirgi past bazadan yuqori o‘sish maydoniga ega ekanini ko‘rsatadi va islohotlarning iqtisodiy mantig‘ini mustahkamlaydi.

Bemorning manzillar tanlovini belgilovchi omillar empirik jihatdan ham aniqlangan. Xalqaro so‘rovlar natijalariga ko‘ra, bemorlarning taxminan 45 foizi tibbiy xizmat sifatini, 70 foizdan ortig‘i o‘z mamlakatidagi uzoq navbatlarni, 62 foizi ilg‘or tibbiy texnologiyalarga kirish imkonini hal qiluvchi omil sifatida ko‘rsatgan; 87 foizi esa til va madaniy yaqinlikni muhim deb baholagan, davolanish xarajatlaridagi tejam esa 40-80 foizni tashkil etishi qayd etilgan [9]. Bu ko‘rsatkichlar raqobatbardoshlik omillarining nazariy ro‘yxati emas, balki bemor xulq-atvorini real shakllantiruvchi amaliy mezonlar ekanini namoyon etadi.

Adabiyotlarning umumlashtirilishi raqobatbardoshlikni quyidagi tarzda tushunishga olib keladi: u alohida ustunlikning natijasi emas, balki sifat, narx, infratuzilma, marketing, kadrlar va institutsional muhitning o‘zaro


muvofiqlashtirilgan tizimidir. Mavjud manbalar global mezonlar va metodologiyani yetarli darajada yoritgan bo‘lsa-da, ularning O‘zbekiston mintaqalari sharoitiga moslashtirilgan tahlilini yanada rivojlantirish va boyitish imkoniyatlari mavjud. Maqola ana shu uzilishni to‘ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot tavsifiy-analitik yondashuvga asoslangan bo‘lib, ikkilamchi ishonchli ma’lumotlarni tizimli umumlashtirishni nazarda tutadi. Empirik baza sifatida xalqaro tadqiqot tashkilotlarining bozor hisobotlari, Jahon sayohat va turizm kengashining iqtisodiy ta’sir tadqiqotlari, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari hamda qonunchilik hujjatlari jalb etildi. Har bir raqamli ko‘rsatkich asl manbasiga havola bilan tasdiqlangan holda keltirildi.

Analitik ramka sifatida Tibbiy turizm indeksining uch o‘lchovli tuzilmasi qabul qilindi: turizm manzillar jozibadorligi, soha sig‘imi va xizmat sifati [5]. Ushbu ramka asosida raqobatbardoshlik omillari oltita guruhga ajratildi - tibbiy xizmat sifati va xalqaro akkreditatsiya, narx ustunligi, infratuzilma va klaster tashkiloti, raqamli marketing, kadrlar salohiyati hamda huquqiy-institutsional qo‘llab-quvvatlash. Omillarning mintaqaviy iqtisodiy natijalarga ta’siri 1-rasmda keltirilgan konseptual model orqali ifodalandi.

Tadqiqot uslubi qiyosiy va dinamik tahlilni birlashtiradi. Qiyosiy tahlil O‘zbekiston ko‘rsatkichlarini global va mintaqaviy yetakchi turizm manzillar bilan solishtirishga, dinamik tahlil esa xorijiy bemorlar oqimining yillar kesimidagi o‘zgarishini baholashga xizmat qildi. Baholashning ishonchliligini ta’minlash maqsadida faqat tasdiqlangan, ochiq va havola qilinadigan manbalardan foydalanildi; taxminiy yoki manbasiz ko‘rsatkichlar tahlilga kiritilmadi.



1-rasm. Tibbiy turizm raqobatbardoshligi omillarining mintaqaviy iqtisodiy natijalar bilan bog‘liqlik modeli[1].

TAHLIL VA NATIJALAR

Global bozorning hududiy taqsimoti raqobatbardoshlik omillarining qaysi sharoitda kuchayishini ko‘rsatadi. Yevropa 2025-yilda jahon tibbiy turizm bozorining 36,51 foizini egallagan bo‘lib, mintaqaning yuqori tibbiy standartlari va akkreditatsiya tizimi yetakchilikni belgilagan; Yaqin Sharq va Afrika mintaqasi esa 11,97 foiz ulush bilan 4,57 milliard dollar daromad shakllantirgan [10]. Bu taqsimot sifat va institutsional ishonch yuqori bo‘lgan hududlar bozorning eng katta qismini jalb etishini tasdiqlaydi.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi narx ustunligi va infratuzilma rivoji hisobiga jadal o‘smoqda. Singapur, Yaponiya va Hindiston indeks reytingida yuqori o‘rinlarni egallab, soddalashtirilgan viza tartiblari va mehmondo‘stlik darajasi orqali bemorlarni jalb etadi; masalan, Malayziyada yurak koronar angioplastikasi narxi 4200-10000 AQSH dollar oralig‘ida bo‘lib, rivojlangan mamlakatlardagi narxlardan sezilarli past [11]. Narx ustunligi sifat kafolati bilan birlashganda eng kuchli raqobat afzalligini yuzaga keltiradi.

1 Manba: muallif ishlanmasi [5].

Birlashgan Arab Amirliklari institutsional yondashuvning natijaviyligini ko‘rsatuvchi yorqin misol bo‘ldi. Dubay tibbiy turizm indeksida MENA mintaqasida birinchi, global miqyosda oltinchi o‘rinni egallab, 2023-yilda 691 mingdan ortiq tibbiy sayyohni qabul qilgan; tibbiy viza va Dubay sog‘liqni saqlash shaharchasi kabi infratuzilmaviy yechimlar buning asosini tashkil etdi [12]. Ushbu tajriba viza qulayligi, klaster tashkiloti va maqsadli marketing birgalikda ishlaganda turizm manzillar tez sur’atda yuqori reytingga ko‘tarilishini tasdiqlaydi.

O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi dinamikasi sohaning real o‘sish maydonini ochib beradi. Mamlakatga davolanish maqsadida kelgan xorijiy bemorlar soni 2021-yildagi 32 400 nafardan [13] 2025-yilda 86 199 nafarga ko‘tarildi [3], ya’ni to‘rt yil ichida deyarli 2,7 baravar oshdi. 2025-yildagi oqimning hududiy tarkibi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

O‘zbekistonga davolanish maqsadida kelgan xorijiy fuqarolar, 2025-yil[3]

Yuboruvchi davlat	Bemorlar soni
Tojikiston	59 145
Qirg‘iziston	15 631
Qozog‘iston	8 224
Rossiya	1 899
Afg‘oniston	914
Boshqa davlatlar	386
Jami	86 199

Izoh: ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va Dunyo axborot agentligi tomonidan e’lon qilingan [3].

1-jadval ma’lumotlari raqobatbardoshlikning amaliy mantig‘ini aniq tasdiqlaydi. Bemorlarning ko‘pchiligi Tojikiston, Qirg‘iziston va Qozog‘istondan kelgani geografik yaqinlik, til umumiyligi va narx ustunligining birgalikdagi ta’sirini namoyon etadi. Bir vaqtning o‘zida Rossiya, Afg‘oniston va boshqa mamlakatlardan kelayotgan bemorlar oqimining mavjudligi xalqaro bozor geografiyasini bosqichma-bosqich kengaytirish imkoniyatlarini namoyon etadi va xizmat sifati hamda ishonch oshgan sari oqim geografiyasi ham kengayishini taxmin qilish imkonini beradi.

Joriy yil davomidagi oraliq ko‘rsatkichlar ham izchil o‘sishni qayd etdi. 2025-yil yanvar-noyabr oylarida mamlakatga 80 653 nafar xorijiy fuqaro davolanish uchun tashrif buyurgan bo‘lib, oqimning asosini Tojikiston, Qirg‘iziston va Qozog‘iston tashkil etgan [14]. Bunday barqaror dinamika davlat tomonidan sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tashabbuslarning natijaviyligini tasdiqlaydi.

Hududiy sig‘imning kengayishi raqobatbardoshlikning infratuzilmaviy asosini mustahkamlamoqda. Buxoro viloyati misolida shifoxona muassasalari soni 2020-yildagi 89 tadan 2024-yilda 134 taga ko‘tarilib, to‘rt yilda 50,5 foizga oshdi; ayni paytda mehmonxonalar soni 607 taga, sayyohlik korxonalari soni esa 186 taga yetdi [13]. Bu ko‘rsatkichlar tibbiy va sayyohlik infratuzilmasining parallel rivojlanishi mintaqada yaxlit tibbiy turizm ekotizimini shakllantirayotganini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalari raqobatbardoshlik omillari va mintaqaviy iqtisodiy natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyidagicha umumlashtirish imkonini beradi. Tibbiy xizmat sifati va xalqaro akkreditatsiya bemor ishonchini va turizm manzillar obro‘sini oshiradi; narx ustunligi talab hajmini kengaytiradi; infratuzilma va klaster tashkiloti xizmatlar zanjirini birlashtiradi; raqamli marketing va platforma xizmatlari bemor bilan davolanishdan oldingi va keyingi bosqichlarda aloqani ta’minlaydi; kadrlar salohiyati va til kompetensiyasi xizmat sifatini qo‘llab-quvvatlaydi; huquqiy-institutsional asos esa bularning barchasini barqaror tizimga aylantiradi. Ushbu omillar birgalikda eksport daromadi, bandlik, investitsiya oqimi va bog‘liq tarmoqlar multiplikatori orqali mintaqa iqtisodiyotini rivojlantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tahlil tibbiy turizm raqobatbardoshligi yagona ustunlikka emas, balki o‘zaro bog‘langan omillar tizimiga asoslanishini ko‘rsatdi. Global bozorning barqaror o‘sishi [1], sohaning yuqori iqtisodiy multiplikatori [2] va O‘zbekistonda xorijiy bemorlar oqimining izchil ko‘payishi [3] mamlakatning mintaqaviy tibbiy turizm markaziga aylanish salohiyatini amaliy jihatdan tasdiqladi. Zamonaviy bozorda turizm manzillar raqobatbardoshligini shaffoflik, davolanish natijalari va uzluksiz parvarish belgilashi [15] ushbu omillarga investitsiya kiritishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligini mustahkamlaydi.

Birinchi taklif xalqaro akkreditatsiya va sifat tizimini kengaytirishga qaratiladi. Klinikalarning xalqaro sertifikatlash jarayonini tezlashtirish va davolanish natijalarini ochiq e'lon qilish bemor ishonchini oshirib, indeksning xizmat sifati o'lchami bo'yicha mavqeni mustahkamlaydi [6].

Ikkinchi taklif hududiy klasterlarni shakllantirishni nazarda tutadi. Buxoro tajribasida ko'rinib turganidek, tibbiy va sayyohlik infratuzilmasining parallel rivojlanishi yaxlit ekotizim yaratadi [13], shu asosda viloyatlarda ixtisoslashgan tibbiy turizm klasterlarini tashkil etish daromad va bandlikni poytaxtdan tashqariga yo'naltiradi.

Uchinchi taklif raqamli marketing va platforma xizmatlarini rivojlantirishga oid. Bemorlarning aksariyati til, texnologiya va xizmat sifatiga e'tibor qaratgani [9] hisobga olinib, ko'p tilli raqamli platformalar, masofaviy maslahat va davolanishdan keyingi kuzatuv tizimlari joriy etilsa, xizmat zanjirining uzluksizligi ta'minlanadi.

To'rtinchi taklif kadrlar salohiyatini mustahkamlashga yo'naltiriladi. Tibbiy xodimlarning chet tillari va xalqaro xizmat standartlari bo'yicha tayyorgarligini oshirish narx ustunligini sifat kafolati bilan birlashtirib, raqobat afzalligini barqarorlashtiradi.

Beshinchi taklif institutsional muhitni rivojlantirishga taalluqli. Tibbiy va sog'lomlashtirish muassasalarining yagona reyestri hamda klasterlarni rag'batlantirish mexanizmlari [4] amaliyotda izchil qo'llanilsa, eksportga yo'naltirilgan tibbiy xizmatlar O'zbekiston mintaqalari iqtisodiyotini muvozanatli rivojlantirishning ishonchli manbasiga aylanadi. Umuman olganda, omillarni tizimli boshqarish mamlakatning mintaqada yetakchi va istiqbolli tibbiy turizm yo'nalishi sifatidagi mavqeyini mustahkamlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Medical Tourism Market Size & Share, Industry Report 2035. Grand View Research, 2025. URL: https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/medical-tourism-market
2. Travel & Tourism Economic Impact Research (EIR). World Travel & Tourism Council (WTTC), 2025. URL: https://wttc.org/research/economic-impact/
3. Uzbekistan emerges as medical tourism destination with 86,000 international visitors in 2025. Dunyo IA / National Statistics Committee of Uzbekistan, 2026. URL: https://dunyo.info/en/news/v-2025-godu-bolee-86-tysyach-inostrancev-vybrali-uzbekistan-dlya-lecheniya
4. O'zbekiston Respublikasida tibbiy va sog'lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. Prezident qarori, 23.09.2024, PQ-335. Lex.uz, 2024. URL: https://lex.uz/docs/7111500
5. The Medical Tourism Index (MTI). International Healthcare Research Center (IHRC). URL: https://www.healthcareresearchcenter.org/research
6. Medical Tourism Statistics and Facts. Global Healthcare Accreditation. URL: https://www.globalhealthcareaccreditation.com/medical-tourism-statistics-and-facts
7. Medical Tourism Index: A Critical Gauge for Medical Tourism Destinations. Medical Tourism Magazine. URL: https://www.magazine.medicaltourism.com/article/medical-tourism-index-exploring-a-critical-guage-for-medical-tourism-destinations
8. Prospects for the Development of Medical Tourism in Uzbekistan. American Journal of Economics and Business Management, 2025. URL: https://www.globalresearchnetwork.us/index.php/ajebm/article/view/3757
9. Medical Tourism Statistics and Facts (2026). Market.us Media. URL: https://media.market.us/medical-tourism-statistics/
10. Medical Tourism Market Size, Share, Global Growth Report 2034. Fortune Business Insights, 2026. URL: https://www.fortunebusinessinsights.com/industry-reports/medical-tourism-market-100681
11. Medical Tourism Trends 2025: Top Destinations & Innovations. DelveInsight, 2025. URL: https://www.delveinsight.com/blog/medical-tourism-trends-2025
12. Best Countries for Medical Tourism Partnerships. My1Health Referral Partner Network, 2026. URL: https://my1health.com/referral-partner-network/articles/best-countries-for-medical-tourism-partnerships-in-2025
13. Medical tourism growth and the spatial concentration of healthcare capacity in Bukhara region, Uzbekistan. Frontiers in Sustainable Tourism, 2026. URL: https://www.frontiersin.org/journals/sustainable-tourism/articles/10.3389/frsut.2026.1872934/abstract
14. The number of foreign nationals coming to Uzbekistan for treatment exceeds 80,000. Zamin.uz / National Statistics Committee, 2026. URL: https://zamin.uz/en/uzbekistan/181657-the-number-of-foreign-nationals-coming-to-uzbekistan-for-treatment-exceeds-80000.html
15. Medical Tourism Insights 2025: Key Statistics, Market Size & Growth Forecasts. Clinic Booking, 2025. URL: https://clinicbooking.com/health-matters/medical-tourism-insights-2025-key-statistics-market-size-growth-forecasts



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/3

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz